

---

**O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA BILVOSITA  
VA BEVOSITA TARJIMALAR XUSUSIDA**

---

*Kamola Aripova Yusupovna*

*International Islamic Academy of Uzbekistan  
Senior teacher of the Department of Uzbek and  
Foreign Languages +998 90 981-46-15  
e-mail: [kamolakind@mail.ru](mailto:kamolakind@mail.ru)*

**АННОТАЦИЯ**

Мақолада таржима фаолиятининг аҳамияти, бадий таржима ва унинг қийинчиликлари, ҳамда турли тиллар ўртасидаги муносабатлар ҳақида сўз боради. Таржима, халқ ва маданиятлар ўртасида ўзаро алоқани мустаҳкамлашда муҳим рол ўйнайди. Бадий таржиманинг мураккаблиги, асарларнинг маъно ва услубини сақлаб қолиш зарурияти билан боғлиқ. Таржима назарияси ва амалиёти ҳақида турли олимларнинг фикрлари келтирилган.

**Калит сўзлар:** адабий, ижтимоий-сиёсий ва махсус таржима, кетма-кет таржима, синхрон таржима, маҳаллий таржима, коммунал таржима.

---

**КОСВЕННЫЕ И ПРЯМЫЕ ПЕРЕВОДЫ С УЗБЕКСКОГО НА  
АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК В ЧАСТНОСТИ**

---

**АННОТАЦИЯ**

В статье говорится о важности переводческой деятельности, художественном переводе и его сложностях, а также о взаимосвязях между различными языками. Перевод играет важную роль в укреплении взаимосвязей между народами и культурами. Сложность художественного перевода связана с необходимостью сохранить смысл и стиль произведений. Приведены мнения различных ученых о теории и практике перевода.

**Ключевые слова:** художественный, общественно-политический и специальный перевод, последовательный перевод, синхронный перевод, перевод с места, коммунальный перевод.

---

**INDIRECT AND DIRECT TRANSLATIONS FROM UZBEK TO  
ENGLISH IN PARTICULAR**

---

**Annotation**

The article discusses the importance of translation activities, literary translation and its complexities, as well as the relationships between different languages. Translation plays an important role in strengthening the ties between peoples and cultures. The complexity of literary translation is associated with the need to preserve the meaning and style of works. The opinions of various scientists on the theory and practice of translation are given.

**Keywords:** literary, socio-political and special translation, consecutive translation, simultaneous translation, translation from the spot, communal translation.

Eng dastlabki davrdan boshlab, insoniyatning rivojlanishida turli xalqlar, millatlar o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatish muhim bo'lib kelgan. Har bir qabilaning, millat, elatlarning o'z so'zlashuv tili mavjud bo'lib, bu xalqlarning bir-biri bilan munosabat o'rnatishi uchun eng qadimgi davrlardanoq tarjima faoliyatiga ehtiyoj mavjud bo'lgan.

Insoniyatning rivojlanish tarixida til qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi ma'lum. Qadim davrlardanoq qabilalar so'zlashadigan tillar bir-biridan farqlangan bo'lsa, bugungi kunda dunyoda 7000dan ortiq til mavjud. Shuni hisobga olgan holda aniq aytishimiz mumkinki, tarjimaga bo'lgan ehtiyoj hanuz kamaygani yo'q, balki vaqt o'tishi bilan tobora oshib bormoqda. Biroq bu narsa tarjima faoliyatiga nisbatan to'g'ri hisoblanadi, tarjima nazariyasining tarixi esa yaqin o'tmishga borib taqaladi. Tarjima faoliyati til bilan bevosita bog'liq hodisa bo'lganligi uchun tilshunoslik sohasida tarjima faoliyatini tadqiq etishga alohida o'rin ajratiladi. Turli uslubga oid og'zaki yoki yozma matnlarni tarjima qilishga doir ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilib, bu jarayonlarda uchraydigan muammolarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tarjimaning eng qiyin turlaridan biri - bu badiiy tarjima hisoblanadi. Badiiy tarjimaning o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, unda nafaqat aslyat matnidagi ma'noning saqlanishiga, balki turli stilistik vositalar, badiiy unsurlarni ham tarjima matniga olib o'tishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Badiiy tarjima usulini tadqiq etishga tarjimashunoslik sohasida keng o'rin ajratilgan bo'lib, o'zbek tilshunoslari, shuningdek, Rossiya va Yevropa tilshunoslik maktablari vakillari tomonidan tarjimaning bu turini o'rganishga oid ko'plab ishlar amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda butun dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro aloqani mustahkamlash juda muhim ehtiyoj hisoblanib, davlatlarning rivojlanishi, har tomonlama taraqqiy etishining asosiy omiliga aylanib qolgan. Globallashuv jadal kechayotgan bunday davrda har bir xalqning raqobatbardoshligi bu millatning jahon hamjamiyati bilan qanchalik aloqa o'rnatilganligiga bog'liq. Dunyoda 7000 dan ortiq til mavjud ekanini hisobga olsak, bu tillarda so'zlashuvchi xalqlarning o'zaro aloqa o'rnatishi uchun tarjima faoliyati bevosita muhim ekanligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Tarjima orqali bir xalqning madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini, tarixiy taraqqiyoti haqida boshqa xalqlar ham bilib oladi. Bu orqali dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro do'stlik, birodarlik rishtalari paydo bo'ladi. Bugungi kunga kelib, har bir inson jamiyatda o'z o'rnini topishi, dunyoni anglab, undagi yangiliklardan boxabar bo'lib turishi uchun kamida bitta xorijiy tilni bilishga harakat qilishi go'yo talab darajasiga ham ko'tarildi. Zero, bundan yuz yillar avval ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar o'g'li ham bizni chet tillarini o'rganishga da'vat etgan edi:

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,  
Til vositai robitai olamiyondur.  
G'ayri tilni sa'y qiling bilgali yoshlar,  
Kim ilm-u hunarlar rivoji andin ayondur.

Bu misralarda ta'kidlangan fikrlarning barchasi haqiqatdir. Tilni vosita sifatida qo'llaydigan kasb egasi bo'lmish tarjimonlarga nisbatan xuddi shu so'zlarni aytsak, umuman adashmagan bo'lamiz.

O'zbek tarjimashunoslik nazariyasi va tarjima amaliyotining rivojlanishi G'aybulla Salomov nomi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u tarjima faoliyatini shunday ta'riflaydi: "tarjimaning asosiy xususiyati - ma'noni saqlab qolgan holda uni boshqa til vositalari yordamida qayta yaratishdan iborat bo'lgan so'z san'ati, ijodiy faoliyat ekanligida". Bir xalqning badiiy adabiyotiga tegishli bo'lgan asarlar tarjima orqali boshqa xalqlarga ham tushunarli bo'ladi. G'. Salomovning so'zlariga ko'ra, bu jarayonda tarjimon - ijodkor ham hisoblanadi. G'.Salomov o'zining "Tarjima tashvishlari" asarida shunday deydi: "Tarjima faoliyati natijasida jamiyatda yangi munosabatlar o'rnatiladi, yangicha qarashlar paydo bo'ladi". Darhaqiqat, badiiy adabiyot tarixidan ham ma'lumki, jahon adabiyoti namunalarining boshqa tillarga tarjima qilinishi sababli adabiyotda yangi janrlar, yangicha oqimlar, g'oyaviy yo'nalishlar yuzaga kelgan.

Taniqli tarjimashunos olim Quدرات Musaevning so'zlariga ko'ra, tarjima - bir tildagi matnning mazmuniy va shakliy xossalarini o'zgartirmagan holda, uni boshqa tilning ifoda vositalari orqali qayta yaratish jarayoni hisoblanadi. Haqiqatan, "yaratish jarayoni" mahsuli bo'lgan tarjima endi asarning muallifiga emas, uni boshqa tilga o'girgan tarjimonga tegishli ijodiy ish sanaladi. Tarjimon bir tildagi asarni boshqa tilga olib o'tishda o'z ijodiy qobiliyatlarini ishga soladi, xuddi asar muallifi singari u ham tarjimaga o'z yondashuvi, ifoda tili, uslubini singdiradi Quدرات Musaev o'z so'zining davomida ushbu fikrlarni keltirib o'tadi: "Turli xalqlar adabiyoti namunalarining bir-biriga ta'sir o'tkazishi, o'zaro aloqaga kirishishi, albatta, tarjima jarayoni orqali sodir bo'ladi. Tarjima tufayli o'quvchilar o'zlari bilmagan tillarda yozilgan nodir asarlarni ham o'qib, ularning badiiy ta'sir kuchidan bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ladilar. Tarjima asarlarni o'qigan kitobxonlar estetik zavqni his etadilar, shuningdek, ularning badiiy didlari yuksalib, dunyoqarashlari kengayadi". Q. Musaevning tarjima faoliyati haqidagi ushbu ijobiy fikrlarini G'. Salomov aytgan so'zlarning mantiqiy davomi, desak ham to'g'ri bo'ladi.

"Muallif tomonidan yaratilgan ilmiy yoki badiiy asar, biron nutq parchasi, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, ma'lumotlarni bir tildan ikkinchi tilga ko'chirib o'tkazish, ularning boshqa tilda tushunarli bo'lishini ta'minlash tarjima jarayonining asosini tashkil qiladi", - deydi tarjimashunos olim I. G'afurov. Q. Musaev hamda I. G'afurovning fikriga umumiy xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, tarjima - bir tildagi og'zaki yoki yozma matnni ikkinchi bir tilga o'girish jarayoni bo'lib, bunda matnning leksik, semantik, lingvakulturologik, stilistik xususiyatlari hisobga olinadi.

Tarjima faoliyatining asarni yangidan yozishga qiyos etilishining yana bir sababi shuki, badiiy asar muallifi tomonidan asarda qo'llangan uslubiy-tasviriy vositalar, hishayajonli holatlar, emotsiyalarni tarjimada aks ettira olish ham juda murakkab jarayon sanaladi va buning uchun tarjimondan katta mahorat, vaqt va e'tibor talab etiladi. Tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishi - uning tarjima tili kitobxonlari tomonidan yaxshi kutib olinishi yoki o'qilmay qolib ketishi - ko'p jihatdan tarjimonga bog'liq. Tarjimon asar tilini mukammal darajada bilishi, asarda qo'llangan barcha lingvistik

komponentlarni to‘liq anglashi, qahramonlar xarakteri-yu asardagi voqealar tasvirini yaxshi tushuna olishi kerak. Asar orqali muallif nima demoqchi ekanini anglamay turib, uning hikoya uslubi, asar qahramonlarining tabiati, voqealarga to‘g‘ri yondashuvga ega bo‘lmasdan qilingan tarjima juda noaniq chiqadi, asl asarni ifodalab berolmaydi. Natijada, tarjima tili kitobxonida asarga va uning muallifiga nisbatan noto‘g‘ri fikr paydo bo‘ladi, asarning qadr-qimmati tushadi. Tarjima matnini o‘qigan kitobxon undan yetarli darajada zavq olmasa, asarning aslini ham shunday deb o‘ylaydi. Tarjimaning xom ekanligi tufayli kitobxonda asarning asl nusxasi ham muallif tomonidan past saviyada yozilgan, degan tasavvur paydo bo‘ladi. Badiiy asarni tarjima qilishdan asosiy maqsad - asar tilining leksik, sintaktik, stilistik xususiyatlarini hsiobga olib, undagi ma’no va shakl uyg‘unligini ta’minlagan holda tarjima tilida qayta tasvir yaratishdan iborat. Buni to‘g‘ri bajarmaslik natijasida tarjimada ma’no buzilishlari kuzatilib, ifoda me’yorida aniqlik yo‘qoladi.

Aksariyat hollarda, asarning tili bilan tarjima tili o‘rtasida katta farqlanish mavjud bo‘lib, bu holat tillarning leksik, grammatik, uslubiy, semantik sathlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bir-biriga lingvistik jihatdan yaqin guruhlariga mansub bo‘lgan, qardosh hisoblanuvchi tillar o‘rtasidagi tarjima jarayoni birmuncha oson kechadi, negaki, til unsurlari qardosh tillarda ko‘p jihatdan o‘xshash bo‘ladi. Boshqa-boshqa til guruhlariga kiruvchi tillarda yozilgan asarlar o‘rtasidagi tarjima esa nisbatan murakkab jarayon hisoblanib, tarjimondan katta mahorat, kuch-quvvat va vaqt talab qiladi. Xususan, o‘zbek badiiy adabiyotida bevosita tarjimani eng ko‘p uchratishimiz mumkin bo‘lgan ingliz tili ham o‘zbek tiliga qardosh emas. Hind-yevropa tillari oilasiga kiruvchi ingliz tili hamda turkiy tillar oilasiga kiruvchi o‘zbek tillarida yaratilgan asarlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, sababi, bu tillarning grammatik tuzilishi, leksik va semantik birliklarining tarkibi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Bunday holatda asosiy e’tiborni til birliklarining shakliga emas, matnda ifoda etilgan ma’noning tarjima tiliga to‘g‘ri olib o‘tilishiga qaratish lozim. Tarjima faoliyatini tadqiq etgan olimlardan biri Komiljon Jo‘raevning so‘zlariga ko‘ra, asliyat matnida muallif tomonidan yaratilgan badiiylilik bo‘yog‘i, asarning estetik qiymatini tarjima tilida ochib berish uchun til birliklarining moddiy emas, vazifaviy jihatdan uyg‘unligini ta’minlash kerak bo‘ladi. Tarjima jarayonida qiyinchilikka uchramaslik uchun mutaxassislar yetarli darajada nazariy bilimga ham ega bo‘lishi kerak. Nazariy tayyorgarliksiz boshlangan tarjima faoliyati mukammal bo‘lmay, asar oxiriga yetkunga qadar tarjimanni qiynab qo‘yadi. Muvaffaqiyatli tarjimani amalga oshirish uchun yetarli bilim va nazariy ma’lumotlarni tarjimon shu paytga qadar bajarilgan tarjima amaliyotlari natijasida to‘plangan umumiy tarjima nazariyasidan oladi.

G‘aybulla Salomov tarjima faoliyatining dunyo miqyosidagi ahamiyati katta ekaniga urg‘u berib, uni bugungi kun hayotini tasavvur ham qilib bo‘lmasligini aytadi. O‘z fikrlari davomida olim shunday deydi: “Tarjima bo‘lmasa, xalqlarning o‘zaro aloqasi amalga oshmaydi, busiz esa taraqqiyot bo‘lmaydi. Boshqa xalqlarning hayoti, turmush tarzi haqida bilimga ega bo‘lmaslik oqibatida millatlar rivojlanishdan to‘xtab, zavolga yuzlanadi”. Ushbu fikrlarni umumlashtirib aytadigan bo‘lsak, tarjima amaliyotining quyidagi sohalarda ahamiyati juda katta:

- dunyo xalqlarining o‘zaro aloqasi, do‘stona munosabatini mustahkamlashda;
- ilm-fan hamda texnika taraqqiyotini tezlashtirishda;
- xalqlarning madaniyati, san‘at va adabiyotining o‘zaro ta’sirlashuvida;
- tillar tarkibining kengayishi, boyishi va boshqalarda.

Tarjima faoliyatini shunchaki nusxa ko‘chirish, deb tushunmaslik kerak. Ayniqsa, badiiy tarjima sohasiga nisbatan bunday ta’rifni qo‘llash umuman xato bo‘ladi. Chunki tarjima asarda aslyat matnidagi his-tuyg‘u va badiiylikdan tashqari, tarjimon tomonidan berilgan estetik sayqal ham o‘z aksini topadi. Tarjimon badiiy asarni tarjima tili vositalaridan foydalangan holda qaytadan yaratadi va bu jarayonda o‘zi sezmaganda holda ijodkorligini ishga soladi, o‘z shaxsiy uslubidan foydalanadi. I.G‘ofurovning fikriga ko‘ra, aslyat matnini tarjima tilida qayta gavdalandirishda muvaffaqiyatga erishish uchun tarjimon asarda ifoda etilgan tasvirni muallif darajasida yaxshi anglashi lozim.

Tarjima amaliyotini tadqiq etish borasida jahon tilshunos-tarjimashunos olimlari tomonidan ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Quyida bir qancha olimlarning fikrlarini keltirib o‘tamiz: ispan tarjimashunos olimasi Ana Mariya Rojoning fikricha, tarjima - bir tildagi og‘zaki matnning ikkinchi tildagi og‘zaki matnga, bir tildagi yozma matnning boshqa tildagi yozma matnga aylantirishdan iborat bo‘lgan faoliyat turidir. A. Rojoning bu fikrlari tarjima faoliyatiga nisbatan keltirilishi mumkin bo‘lgan eng qisqa, lo‘nda va umumiy ta’rifdir”. P. Nyumark tarjimaning muallifga tegishli bo‘lgan matnning u nazarda tutgan usulda chet tiliga o‘girish jarayoni sifatida ko‘radi. O‘ylaymizki, P. Nyumarkning ushbu fikrlari badiiy asarlarni tarjima qilishga nisbatan ishlatilsa, juda to‘g‘ri bo‘ladi. Buning sababini esa badiiy adabiyot namunalarida emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik, badiiy unsurlar, kitobxonga ta’sir kuchi, muallif uslubi va konnotativ tagma’nolarning mavjudligi orqali izohlash mumkin.

Demak, tarjima jarayoni haqida gap ketganda, bir tildagi og‘zaki yoki yozma matnning boshqa tilda, boshqa til birliklari vositasida qaytadan tasvirlash jarayoni tushunilib, bunda manba til hamda tarjima tilining leksik-semantik, stilistik, lingvokulturologik aspektlari hisobga olinadi. Shundan kelib chiqqan holda, biz ushbu dissertatsiya ishimizda badiiy tarjima amaliyoti hamda bu jarayonning eng murakkab jihatlaridan bo‘lgan uslubiy-tasviriy til birliklarining tarjima qilinishini tadqiq etishga harakat qildik. Asarning badiiylik bo‘yog‘ini, undagi stilistik vositalar, badiiy unsurlar, tasviriy bo‘yoqdorlikni tarjima matnida ham aks ettira olish uchun nafaqat ikki tilning leksik-stilistik qatlamaning yaxshi tushunish, balki bu tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning urf-odatlari, madaniyati, milliy qadriyatlari, kerak bo‘lsa, tarixiy taraqqiyotidan ham xabardor bo‘lish lozim. Sababi, badiiy matnlarda keng qo‘llanuvchi stilistik vositalar(metaphora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag‘a), asosan, xalqlarning milliy qiyofasini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi, shuningdek, bu vositalarning tilda shakllanish jarayoni ham xalqlarning turmush tarzi, etnik xususiyatlariga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Dunyo tarjimashunoslik maktablari rivojlanib borar ekan, yurtimizda ham mustaqillik yillarida olimlar orasida tarjima faoliyatini tadqiq etishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bordi. Xorijiy tillar bilan o‘zbek tili o‘rtasida amalga oshirilgan bilvosita hamda bevosita tarjimalarni tanqidiy yondashib o‘rganish holatlari orta boshladi,

buning natijasida esa tarjima jarayoni ham ancha takomillashdi, har tomonlama sifatli bo'lgan tarjima asarlar milliy adabiyotimizga kirib keldi. Tarjima faoliyatida erishilgan yutuqlarning yana bir sababi sifatida tarjima nazariyasini o'rganishda olib borilgan tadqiqot ishlari natijalarini ham keltirib o'tish mumkin. O'zbek adabiyotini boyitib turgan jahon adabiyoti durdonalari tarjimalarini tilga olganda, ingliz kitobxonlari uchun tayyorlangan o'zbek badiiy asarlari tarjimalarini ham tilga olishimiz to'g'ri bo'ladi.

Bugungi kunga qadar o'zbek adabiyotining nodir namunalari ko'plab chet tillariga tarjima qilinib, o'zga tilli kitobxonlar tomonidan sevib o'qilmoqda. Bu asarlarning jahon adabiyoti manbalar xazinasini boyitganligi, uning rivojiga hissa qo'shganligi aniqki, turkshunos olimlarimiz bu haqida o'z ilmiy ishlarida ko'p bor ma'lumot berib, bu tarjimalarning badiiy salmog'ini e'tirof etishgan. Milliy adabiyotimizning sara namunalari xoriylik kitobxonlarga ular tushunadigan tilda yetkazib berish, ularni estetik zavqdan bahramand etish uchun amalga oshirilgan muhim ishlardan biri O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2010-yil 26-fevraldagi qarorida o'z aksini topgan. Qarorda Yozuvchilar uyushmasi huzurida "Ijod" fondi tashkil etilishi belgilangan bo'lib, uning davomida uyushmaga maxsus topshiriq ham yuklatilib, uning asosiy mazmuni "...xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati, asriy an'ana va qadriyatlar tarannum etilgan, milliy ma'naviyatimizning mazmun-mohiyati teran badiiy ifodasini topgan mumtoz va zamonaviy adabiyotimiz munosib namunalari xoriy tillarga tarjima qilishni hamda internetda keng targ'ib etish"dan iborat edi.

Alisher Navoiy ijodi badiiy adabiyotimizda qanchalar salmoqli o'ringa ega ekanligi ma'lum. O'zbek tilidan chet tiliga badiiy tarjimalarning dastlabki namunalari ham aynan Navoiy bobomiz asarlaridan boshlangan. 2003-yilda buyuk ijodkorning "Lison ut-tayr" asarini ingliz tiliga tarjimasini tayyorlashda o'zbek olimlaridan N. Qambarov, T. Muxammadxo'jaevlar hamda kanadalik navoiyshunos ingliz olimi Garri Dikning xizmatlari katta bo'ldi. Alisher Navoiyning g'azal va ruboiylari, hikmatlari, shuningdek, "Farhod va Shirin" dostonidan parchalarni o'z ichiga oluvchi "O'zbekiston gapiradi" nomli inglizcha to'plam tayyorlangan bo'lib, u 1961-yilda Toshkent shahrida nashr etilgan.

1958-yilda Moskvada o'zbek milliy she'riyati namunalari ingliz tiliga tarjimalarini o'z ichiga olgan birinchi o'zbek she'riy antologiyasi tuzildi va "Uzbek Poetry" ("O'zbek she'riyati") nomi ostida nashr etildi. Bizningcha, bu antologiyaning chop etilishi o'zbek tilida she'riy tarjima faoliyati boshlanishi uchun ilk qadam bo'lib xizmat qildi. O'zbek adabiyotiga oid ko'p asrlik she'rlarni o'zida jamlagan ushbu antologiyadan Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" hamda "Xazoyin ul-maoniy" dostonlariga oid kichik parchalar, shuningdek, shoirning uch dona g'azali va hikmatlari ham o'rin olgan bo'lib, qolgan qismlarda, asosan, zamonaviy o'zbek she'riyatiga oid mashhur she'rlarni uchratish mumkin. Bu she'rlarni ingliz tiliga tarjima qilishda, asosan, V. Ievleva, D. Rotenberg, O. Moiseenko va boshqa tarjimonlar qatnashgan.

Ko'rinib turibdiki, o'zbek adabiyoti xoriy davlatlarda ham o'zga tilli kitobxonlar tomonidan sevib o'qiladi, ijodkor va yozuvchilarga nisbatan hurmat bajo keltiriladi.

So‘nggi bir necha yillar tarixiga nazar tashlasak, Oybekning “Navoiy” romani, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani I. To‘xtasinov, U. Yo‘ldoshev, O. Mo‘minov kabi bir qator tarjimonlar tomonidan ingliz tiliga o‘girilib, nashr etildi.

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namunalarini xorijiy tillarga, xususan, ingliz tiliga o‘girish jarayoni oson kechmagani aniq. Jumladan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ingliz tiliga tarjima qilishda I. To‘xtasinov boshchiligidagi bir guruh tarjimonlar uzoq muddat davomida mehnat qildi. Tarjimoni nashrga tayyorlash ishlarida xorijlik tarjimonlar, muharrirlar bilan hamkorlik qilindi. Romanning tarjima nusxasi matniga muharrirlik qilish uchun chet ellik mutaxassislardan amerikalik olim Kristin Smart taklif etildi.

Biroq ijodiy jamoa bu bilan to‘xtab qolgani yo‘q. I. To‘xtasinov boshchiligidagi tarjimonlar guruhi 2012-yildan 2014-yilgacha bo‘lgan qisqagina muddat ichida o‘zbek adabiyoti durdonalaridan bo‘lmish 18 ta asarni ingliz tiliga bevosita usulda tarjima qildilar. Ularning orasida Abdulla Qodiriyning yana bir mashhur romani “Mehrobdan chayon” (“Scorpion from Altar”), Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” (“Starry Nights”), O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” (“Affairs of Life”), Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” (“The Treasure of Ulugbek), Tohir Malikning “Shaytanat” (“Devildom”), Cho‘lponning “Kecha va kunduz” (“Night and Day”), G‘afur G‘ulomning “Shum bola” (“A Naughty Boy”) qissasi kabi mashhur asarlar bor edi. Bu ishlarni o‘zbek hamda ingliz tillaridagi badiiy asarlarni bevosita tarjima qilish ishlariga debocha bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi.

O‘zbek romanchiligidagi eng muhim asarlardan biri Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani bo‘lib, u ham “O‘tkan kunlar” romani singari dunyoning ko‘plab tillariga o‘girilgan va butun dunyo bo‘ylab xorijiy tilda so‘zlashuvchi kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladi. Belgiyalik mashhur olim, osiyoshunos tadqiqotchi S. Dyuduanon 2009-yilda bevosita tarjima usulidan foydalanib, “Kecha va kunduz” asarini fransuz tiliga o‘girdi. Asarning “Kunduz” qismi yo‘q ekani sababli, u tarjima asarni “Nuit” (“Tun”) nomi bilan nashr ettirdi. Tarjimon haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, S. Dyuduanon 1962-yilda Belgiyada tug‘ilgan bo‘lib, hozirda Fransiyaning Sorbonna universitetida faoliyat yuritmoqda. U uzoq muddat davomida Osiyo xalqlari mentaliteti, madaniyati, yaqin o‘tmishini tadqiq etib, o‘z muallifligi ostida bir qancha ilmiy ishlarni chop ettirdi. Uning “Kecha va kunduz” romanini fransuzchaga qilgan tarjimasi bu romanni bevosita usulda tarjima qilmoqchi bo‘lgan boshqa olimlar uchun mahorat maktabi bo‘lib xizmat qildi, desak xato bo‘lmaydi.

So‘nggi bir necha yillar ichida o‘zbek adabiyoti namunalarini chet tillariga bevosita tarjima qilish jarayoni tezlashdi. Davlatimizning o‘zi bu ishlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib, tarjima faoliyatini rivojlantirishga doir bir qancha ishlarni yo‘lga qo‘ymoqda. Badiiy asarlarni o‘zbek tilidan chet tillariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish sohasida turli xil davlat grantlari ta‘sis etilayotgani fikrimizning yorqin dalilidir. Avvallari jahon adabiyotining yirik namunalarini o‘zbek tiliga o‘girishda rus tili yoki boshqa tillardan “ko‘prik” sifatida foydalanilib, bilvosita tarjima amaliyoti juda keng tarqalgan edi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng esa

o‘zbek tarjimashunoslik sohasi tubdan isloh qilinib, ko‘plab quvonarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, jahon tillaridan o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima va ona tilimizdan chet tillariga: ingliz, rus, koreys, xitoy, nemis va boshqalarga bevosita tarjima amaliyotlari keng yoyildi. Bevosita tarjima orqali asliyat matniga imkon qadar yaqin bo‘lgan mazmuni ochib berish imkoniyati paydo bo‘lib, manba tilining leksik-semantik, stilistik imkoniyatlari bilan tarjima tili o‘rtasida tabiiy ko‘prik paydo bo‘ladi, natijada asarning o‘qishlilik darajasi ortadi.

1. Арипова, К. Ю. (2021). The distinctive features of translation of the novel “Night and day”. *Международный журнал искусство слова*, 4(1-2).
2. Catford J. A Linguistic Theory of Translation. – London: OUP, 1965. – P.20.
3. Ingo, R. 1989. Kääntäminen kieltenopetuksessa. In Nuopponen & Palmberg (eds.), 61-67.
4. Klaudy K. 2003. Languages in Translation. Budapest: Scholastica.
5. G‘afurov I, Mo‘minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi. –T.: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – B.7.
6. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T: Fan, 2005. – B.8.
7. Salomov G’. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: O‘qituvchi, 1978. – B.93.
8. Muminova, D. A. (2023). CHET TILINI O‘RGANISHDA TARJIMANING ROLI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 693-696.